

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 18 (1617), 2026-yil 28-yanvar, chorshanba



MAMLAKATIMIZ POYTAXTI AHOLING TINCH VA OSOYISHTA HAYOTI HAMDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI SAMARALI TA'MINLASHDA NAMUNA BO'LISHI ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-yanvar kuni Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi qo'riqlash xizmati faoliyati bilan tanishdi.



Mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayoti hamda mol-mulki daxlsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, ilg'or xorijiy tajriba asosida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti qo'yilgan asosiy vazifalardan biri ham aynan shu sanaladi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yildagi tegishli farmon va qarori ijrosi doirasida Qo'riqlash departamenti Milliy gvardiyadan ichki ishlar organlari tizimiga o'tkazildi.

Ushbu farmon va qarorda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida aniq rejalar ishlab chiqilib, tegishli choralar ko'riladi.

Texnik qo'riqlashni tashkil etish va aholiga texnik qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatishning yangi tizimlari joriy etildi.

Xususan, ko'p qavatli uylarning yo'laklariga "tashvish" tugmalarini o'rnatish orqali qo'riqlash naryadlarining qamrovi ostidagi xonadonlar soni keskin oshirildi, himoya ordeni berilgan ayollarning xavfsizligini ta'minlash amaliyoti joriy etildi.

Obyekt va xonadonlarni qo'riqlovga olish ishlarida ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlari bilan hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi.

Natijada qo'riqlanayotgan obyektlarning soni yil davomida 99 foizga, qo'riqdagi

xonadonlarning soni esa 118 foizga oshdi. Texnik qo'riqlash markazlarining soni 19 foizga, ularga xizmat ko'rsatuvchi tezkor harakatlanuvchi guruhlarning soni esa 15 foizga oshdi.

Davlatimiz rahbari xizmat binosi hovlisida xizmatda qo'llanilayotgan maxsus texnika vositalari, dronlar manyovri, jamoat tartibini saqlashga jalb etiladigan transport vositalarini ko'zdan kechirdi.

So'ng qo'riqlash texnika vositalarining ko'rgazmali taqdimoti bilan tanishildi. Bu yerda "Xavfsiz shahar" konsepsiyasini joriy etish va uni izchil rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida atroflicha axborot berildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yildagi tegishli qarori bilan belgilangan aniq mexanizmlar amaliyotga joriy etilishi natijasida respublika miqyosida "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Ko'rgazma maydonchasida yuridik va jismoniy shaxslarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'rnatilgan videokuzatuv tizimlari hamda turli xil kameralarning real vaqtda ishlash jarayoni namoyish etildi, ularning texnik imkoniyatlari tushuntirildi va amaliy tavsiyalar berildi.

Taqdimot doirasida aylanma kameralar, yuz qiyofasidan shaxsni aniqlovchi kameralar hamda davlat raqam belgisini aniqlovchi

kameralarning imkoniyatlari ko'rsatildi. Ushbu texnik vositalar mahallalar, jamoat joylari, obyektlar, ta'lim muassasalari, shuningdek, shahar va tumanlarning kirish-chiqish nuqtalariga o'rnatilmoqda.

Bugungi kunda barcha hududiy ichki ishlar boshqarmalarida sun'iy intellekt asosida hududlarni onlayn kuzatish, tezkor qidiruv ishlarini olib borish, kuch va vositalarni boshqarish hamda jinoyatlarni "issiq izidan" fosh etishga xizmat qiluvchi "Qalqon" axborot tizimi to'liq ishga tushirilgan.

Davlatimiz rahbari ichki ishlar va qo'riqlash xizmati ishlari mahalladan boshlab, xonadonlarning holatini o'rganib, ularning xavfsizligini ta'minlashi zarurligini alohida ta'kidlagi. Toshkent megapolis shahar ekanini inobatga olgan holda, qonunbuzarlik va jinoyat omillarini muntazam tahlil qilish kerakligiga e'tibor qaratdi.

"Xavfsiz shahar" konsepsiyasi doirasida yagona platforma, 13 ta ma'lumotlarni qayta ishlash markazi, yagona elektron xarita, 42 ming 750 ta intellektual kamera hamda 17 ta yong'in xavfsizligi monitoringi tizimi faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizimlar konsepsiyaning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

Joriy yilda ham vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda intellektual transport tizimlari, avtoturargohlarni boshqarish, ekologik

va seysmologik monitoring, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish tizimlarini joriy etish va integratsiyalash ishlarini davom ettirilayotgani ma'lum qilindi.

Huquqni muhofaza qiluvchi va davlat organlarining "Xavfsiz shahar" yagona platformasi texnik imkoniyatlaridan uyg'un foydalanishi natijasida bir necha yuz milliard so'm byudjet mablag'lari tejalayotgani qayd etildi. "Xavfsiz shahar" konsepsiyasini joriy etish bo'yicha O'zbekiston tajribasi xalqaro darajada ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

Shu bilan birga, yaratilgan shart-sharoitlar natijasida Ichki ishlar vazirligi akademiyasida Raqamlashtirish departamenti uchun zamonaviy talablar asosida yangi bino qurilishi boshlangani ma'lum qilindi. Yil yakuniga qadar tarmoq qamrovini yanada kengaytirish, sun'iy intellekt asosida kamida to'rtta yangi tizimni platformaga ulash hamda raqamlashtirish darajasini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz hozirgi kunda jinoyatchilik shakllari va omillari o'zgarayotgani, ammo ularga mos tizim va choralar yetarli emasligini qayd etdi. Ayniqsa, kiberxavfsizlik yo'nalishida jinoyatlar ko'payib borayotgani va ushbu xavflarni bartaraf etish bo'yicha ishlar jadallashtirilmasa, aholi uchun jiddiy

qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlagi.

Bu borada salohiyatli kadrlar yetishmasligi asosiy muammo ekanini, bank va ichki ishlar organlari xodimlarining bilim va malakasini oshirish, ularni muntazam o'qitishga alohida e'tibor qaratish zarurligini bildirdi. Shuningdek, videokuzatuv tizimlarini joriy etishda ularni o'rnatadigan va samarali boshqaradigan mutaxassislarni tayyorlash, davriy o'quvlarni tashkil etish muhim ekanini ta'kidlagi.

Shundan so'ng Toshkent shahrida tashkil etilgan "Xavfsiz ko'cha", "Xavfsiz yo'lak" hamda gastronomik yo'laklarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan ham tanishildi.

Tashrif davomida qo'riqlash xizmati xodimlarini soha bo'yicha o'qitish jarayoni, profilaktika inspektorlari bilan o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlar ko'zdan kechirildi.

Davlatimiz rahbariga Situations markaz faoliyati taqdimoti orqali xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy boshqaruv va monitoring tizimlarining o'rni haqida ma'lumot berildi.

Situations markaz qo'riqlash xizmatining bo'linmalari harakatlarini nazorat qilish, monitoringini yuritish, tezkor va favqulodda

vaziyatlarda qo'riqlash xizmati kuch vositalarini boshqarish, yo'naltirish va onlayn kuzatish maqsadida tashkil etilgan.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi ham bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahri respublikaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy markazi sifatidagi o'rni yanada mustahkamlaganini, bir so'z bilan aytganda, poytaxtda iqtisodiy rivojlanish darajasi sezilarli oshganini ta'kidlagi.

Shu bilan birga, qayerda hayot yaxshilansa, daromad ko'paysa, o'sha yerda "yengil pul topish" harakatida bo'lgan jinoyi tuzilmalar ham faollashib, jinoyatning yangi usul va vositalari ham, eng avvalo, shu yerda paydo bo'ladi.

Lekin huquq-tartibot tizimi poytaxtdagi yangiliklarga mos ishlamayotgani ko'rsatib o'tildi. Poytaxtning huquq-tartibot idoralari rahbarlari respublikaga namuna bo'lmayotgani, buning uchun poytaxtda resurs ham, kuch-vositalar ham, ilmiy salohiyat ham yetarli bo'lishiga qaramasdan, haligacha eski "qolip"dan chiqib keta olmayotgani tanqid qilindi.

Davomi 2-beta

"ROSATOM" KORPORATSIYASI BILAN HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Rosatom" atom energiyasi bo'yicha davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachyovni qabul qildi.

Mamlakatimizda integratsiyalashgan atom elektr stansiyasini qurish loyihasi ro'yobga chiqarishning amaliy jihatlari, shuningdek, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish borasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'tgan yilning oktyabr oyida birinchi kam quvvatli reaktor binosi uchun poydevor qo'yish ishlari boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi. Elektr stansiyani loyihalashtirish ishlari davom etmoqda.

Bundan tashqari, o'tgan yili "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkentdagi filiali negizida atom energetikasi va yadro texnologiyalari bo'yicha ilg'or muhandislik maktabi ishga tushirildi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi va tibbiyotda yadro texnologiyalarini qo'llash, sohada malakali kadrlarni tayyorlash, fanni rivojlantirish hamda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish borasida hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'ZA

BINALI YILDIRIM: "O'TMISHGA TAYANGAN TURKIYA - O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI BUNDAN BUYON HAM TURKIY DUNYONING O'ZARO ISHONCHI, QARDOSHLIGI VA UMUMIY KELAJAGIGA QIMMATLI HISSA QO'SHADI"

Turkiya davlatlar tashkiloti (TDT) Oqsoqollar kongressi raisi Binali Yildirim "Dunyo" AA bilan suhbatda Turkiya — O'zbekiston munosabatlari, mamlakatimizning tashkilotdagi o'rni, bugungi taraqqiyoti, kelajak avlodlar uchun umumiy turkiy qadriyatlarini asrab-avaylashga sodiqligi haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi:

— Turkiya uchun O'zbekiston bilan munosabatlar chuqur, uzoq muddatli va strategik poydevorga asoslangan. Yakkilik, o'zaro anglashuv va har ikki xalqqa xos davlatchilik tajribasi va axloqi bilan rivojlangan bu munosabatlar qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash uchun poydevor yaratadi.

Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar diplomatik aloqalar yoki

dolzarb hamkorlik mavzulari bilan cheklangan emas. Ikki davlatni umumiy til, mushtarak madaniyat va teran tarixiy tamaddun birlashtirib turadi. Asrlar davomida ayni havzada gullab-yashnagan bu birodarlik ruhi bugun ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarining eng mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Davomi 2-beta

YASHIRIN IQTISODIYOT MUZTOG'I

Uni eritmasdan barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi

Prezidentimiz raisligida 27-yanvar kuni o'tkazilgan Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida mas'ul idoralar uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar, kiberjinoyatchilik va yashirin iqtisodiyot bo'yicha jilovni qo'lga olishi shartligi qayd etib o'tildi. Og'ir jinoyatlar qatorida yashirin iqtisodiyotning sanab o'tilishi bejiz emas. Boisi, ushbu jinoyatlarining urchishiga ayni shu illat zamin yaratadi. Uning davlat va jamiyat taraqqiyotiga yetkazadigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy zarari bundan ham haybatliroq.



Albatta, yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan bu holatlarni yaxshilashning keng qamrovli, ta'sirchan yo'l-yo'riqlari, usullari ko'rsatib o'tildi, bu bo'yicha zarur vazifalar belgilandi. Shubhasizki, ayni

ushbu illat — yashirin iqtisodiyot bilan kurashishning eng ta'sirchan yo'llaridan biri kuchli jamoatchilik nazoratidir. Shu bois, quyida bu tushunchaning mohiyati, uning qanday holatlarda xalqimiz hayoti sifatiga zarar yetkazishi, bu illat ortidan yana qanday muammolar bo'y cho'zishi haqida fikr yuritimiz.

Davomi 3-beta



MAMLAKATIMIZ POYTAXTI AHOLINING TINCH VA OSOYISHTA HAYOTI HAMDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI SAMARALI TA'MINLASHDA NAMUNA BO'LISHI ZARUR

Boshlanishi 1-betda

Har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda asosiy bo'g'in — mahalla profilaktikasi. Biroq Toshkent shahridagi profilaktika xizmatlarining ishi to'g'ri tashkil etilmagan uchun muammolar to'planib qolganini qayd etildi.

Respublikadagi 208 ta tuman ichida Chilonzor oilaviy zo'raonlik, talonchilik, bezorilik bo'yicha, Yunusobod bosqinchilik bo'yicha birinchi o'rinda. Yoki o'tgan yili Yashnobod va Mirobodda qotillik, Olmazorda tan jarohati, Shayxontohurda talonchilik holatlari eng ko'p bo'lgan.

Shu munosabat bilan Toshkent shahar IIBB boshlig'i R.Sultonxo'jayev, Toshkent shahar prokurori vazifasini bajaruvchi A.O'rmonovga "hayfsan" berilib, olti oylik sinov muddati tayinlanishi belgilandi.

Yirik bozorlar va gavjum joylarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha gvardiya, ichki ishlar va favqulodda vaziyatlar idoralarning hamkorligi yetarli emasligi ko'rsatib o'tildi.

Ichki ishlar vazirining axborot texnologiyalariga mas'ul o'rinbosarining tizimni raqamlashtirish bo'yicha ishlarida hali sezilarli natija ko'rinmayotgani tanqid qilindi. Vazirlidagi kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining ishi sustligi qayd etildi.

Prezidentimiz narkojinoiyatchilik va uyushgan guruhlariga qarshi kurash bo'yicha narkokanallarning oxirgi manbasi va homiyliklariga yetib borish uchun mas'ullarda qat'iyat yo'qligini tanqid qildi.

Chet elga borib olib, uyushgan jinoiy guruhlar tashkil qilgan, u yerda o'zimizning fuqarolari ham talayotgan shaxslar faoliyatiga chek qo'yishdagi sustkashliklar qayd etildi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va soliq ma'murchiligi bo'yicha poytaxt soliq organlarining ishi mutlaqo qoniqarsiz ekanini ta'kidlandi. Soliq qo'mitasida qo'shilgan qiymat solig'idan sun'iy o'rtiqcha to'lov hosil qilish orqali uni byudjetdan noqonuniy qoplash holatlari ko'paygan.

Ushbu yo'nalishlarga javobgar bo'lgan qo'mita raisining birinchi o'rinbosari M.Mirzayev ishdan olindi.

Davlatimiz rahbari "O'zbekneftgaz" AJ va Davlat aktivlarini boshqarish agentligida milliardlab so'mlik talon-torojliklarni aniqlanganini ma'lum qildi.

Misol uchun, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining mansabdor shaxslari bozor qiymati kamida 250 milliard so'mlik yer uchastkasini yopiq auktsionga chiqarib, 120 milliard so'mga sotib yuborgan. Shu bois, agentlik direktori A.Ortiqov ishdan olindi.

Yaqinda Administratsiya va davlat idoralarda kompayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yildi.

Qisqa muddatda byudjetga tushum, talon-toroj, moliyaviy kamchiliklar bo'yicha 53 trillion so'm va tashqi savdo operatsiyasida 8 milliard dollardan ortiq qarzdorlik aniqlangan o'ta ayanchli holat ekanini qayd etildi. Korrupsiyaviy sxemalar bo'yicha 4,2 trillion so'm zarar aniqlanib, 1,3 trillion so'mi undirildi, 55 nafar shaxs qamoqqa olindi.

Masalan, Ichki ishlar vazirligi tizimida davlat xaridlarida 186 milliard so'm byudjet mablag'i o'zlashtirilgan aniqlanib, vazir o'rinbosari B.Abdullayev va departament boshlig'i R.Tursunovga nisbatan jinoiyat ishi qo'zg'atildi.

Davlat idoralari va korxonalarida xavfsizlik uchun mas'ullar faoliyatini ham

tanqidiy qayta ko'rib chiqish vaqti kelgani qayd etildi.

Mas'ul idoralar uyushgan jinoiyatchilik, narkojinoiyatlar, kiberjinoiyatchilik va yashirin iqtisodiyot bo'yicha jilovni qo'lga olish shartligi ko'rsatib o'tildi.

Ushbu to'rtta yo'nalish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, jarayon birinchi navbatda Toshkent shahrida boshlanadi. Jumladan, xavfsiz muhit yaratish bo'yicha "poytaxt namunasi" joriy etiladi.

Prezidentimiz yangi tizimni Chilonzor tumani misolida tushuntirib berdi.

Tumanda jamoat xavfsizligi kuch-vositalarini boshqarish yangicha tashkil qilinadi. Patrul-post, yo'l-patrul, qo'riqlash va profilaktika xizmatlari tunu kun uch smenalni xizmat rejimiga o'tadi. Patrul guruhlariga huquqbuzarlik to'g'risida xabar kelib tushganda, voqea joyiga 5 daqiqa ichida yetib keladigan tizim bo'ladi.

Tumandagi 5 ta ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarlari tungi xizmatni bevosita mahallalarda tashkil qiladi. Ular tungi vaqtda o'z boshliqlariga berilgan barcha vakolatga ega bo'ladi, mustaqil qaror qabul qiladi va mas'uliyatni ham to'liq zimmasiga oladi.

Ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlariga tungi xizmatining har soatiga bazaviy hisoblashning 5 foizi miqdorida kompensatsiya to'lanishi belgilandi.

Ilg'or tajriba asosida aholi gavjum joylarda dron yordamida patrullik kuzatuvini yo'lga qo'yildi.

Chilonzor tumani ichki ishlar xodimlari sohasi va hududidan qat'i nazar, fuqaro muhojirini qabul qiladi, ko'chada formal xodimga qilingan murojaat "102"ga xabar bergan bilan teng bo'ladi.

Tumandagi barcha 55 ta mahalladagi profilaktika inspektorining xizmat xonasi eshigi u bilan tezkor bog'lanish uchun aloqa tugmasi bilan jihozlanadi. Ya'ni profilaktika inspektor qayerda bo'lmasin, aholi uni qo'l telefonini va planshetiga tunu kun bog'lanishi mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbari narkojinoiyatlarga qarshi kurash masalasiga alohida to'xtaldi.

Sintetik narkotiklarning 95 foizi internet orqali tarqatilib, to'lov kriptovalyutada bo'layotgani, narkolaboratoriyalar mamlakat ichida ochilayotgani qayd etildi.

Shuningdek, qonunchilikda davlat organlarining bu boradagi vazifalari ham aniq ko'rsatilmagan. Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi faqat tahlil va xalqaro hamkorlik bilan cheklanib qolgan tanqid qilindi. Endilikda agentlikning mas'uliyati kuchaytirilib, unga mutasaddi idoralar ishini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va baholash vakolati beriladi.

Mutasaddilarga transchegaraviy va virtual maydonda uyushgan jinoiyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha yaxlit tizimni yo'lga qo'yish topshirildi. Ichki ishlar vazirligida uyushgan jinoiyatchilik bo'yicha alohida xizmat tashkil qilinadi.

O'tgan yili poytaxtda ushlangan uyushgan jinoiy guruhlar tarkibida 259 nafar "og'ir" toifadagi yoshlar va sportchilar bo'lgani o'ta tashvishli hol ekanini qayd etildi.

Sportchilarning aksariyati ko'cha bezorisiga aylanib ketayotgani, joylarda pul uchun yashirin janglar tashkil qilish holatlari ko'paygani qayd etildi. Mutasaddilarga bu yo'nalishda nazoratni ta'minlash, jangovar sport turlari bilan shug'ullanayotgan yoshlarni kasbga o'qitib, salohiyatiga mos ish bilan band qilish tizimini yaratish topshirildi.

Bugun turli radikal va ekstremistik g'oyalari axborot texnologiyalari orqali yoshlarimiz ongini zaharlashga urinyapti. Faqat jazo va taqib bilan bu muammoni hal qilib bo'lmagligi ta'kidlandi.

Bundan buyon poytaxtning har bir tumanida "Qaytaruv guruhlar" faoliyati doimiy asosda tashkil qilinadi.

Kiberjinoiyatlar kundan kunga ko'payib, uning turlari 18 tadan 62 taga chiqdi. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, sun'iy intellekt orqali ovoz va yuz qiyofasini o'xshatish, zararli fayllarni tarqatish avj olyapti. O'zlashtirilgan mablag'lar kriptovalyuta shaklida chetga chiqarilmoqda.

Bularni tezkor fosh etish va to'xtatish uchun huquq-tartibot xodimlari kibertexnologiyalar va sun'iy intellektni mukammal egallashi lozimligi qayd etildi.

Shu bois, Ichki ishlar vazirligida kiberjinoiyatchilik bo'yicha alohida departament tashkil qilinadi va unga vazirning o'zi mas'ul bo'ladi. Adliya vazirligida kiberjinoiyatchilik va raqamli huquq bo'yicha alohida boshqarma ochiladi.

Kadrlar qo'nimsizligiga barham berish, malakali va fidoyi kadrlarni rag'batlantirish doimiy e'tiborda bo'lishi ta'kidlandi.

Shu bois, profilaktika inspektorlarini yanada qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi obro'sini oshirish bo'yicha qator yangiliklar e'lon qilindi.

Jumladan, joriy yil 1-iyuldan poytaxtdagi profilaktika xodimlariga aynan shu sohadagi ko'p yillik staji uchun 5 million so'mgacha oylik ustama beriladi. 1-fevraldan yuridik oliygohni bitirib, ichki ishlar tizimiga ishga kirganlarning oliygohda o'qigan davri ham ish stajiga qo'shiladi. Viloyatdan

kelib, poytaxt ichki ishlar idoralarda ishlayotgan xodimlarning uy ijariasi uchun oylik to'lov 1,8 million so'mdan 3,1 million so'mga oshiriladi. Ichki ishlar xodimlari uchun qurilayotgan uylarning 30 foizi faqat profilaktika inspektorlariga beriladi.

Mutasaddilarga ichki ishlar organlarining aholi bilan bevosita ishlovchi, jamoat xavfsizligi va jinoiyatchilikka qarshi kurashuvchi tuzilmalarini yangi tizimga o'tkazish bo'yicha farmon loyihasini kiritish topshirildi.

Ushbu bo'linmalar uchun xizmatni o'tash, muomala madaniyati, tezkor harakatlanish, kuch va qurol ishlatish bo'yicha yagona standartlar joriy etilib, ular servis tuzilmaga aylinishi belgilandi.

Adliya tizimini ham kuchaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bu borada birinchi qadam sifatida Adliya vazirligi tomonidan huquq-tartibot idoralarning faoliyatini "huquqiy audit"dan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. "Huquqni muhofaza qilish faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, adliya organlarining aniq roli, yangi vazifa va vakolatlari belgilandi.

Davlatimiz rahbari muhokama qilingan boshqa sohalarda ham mavjud qonun hujjatlarini takomillashtirish, yangilarini qabul qilish zarurligini ta'kidlandi.

Faoliyatida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'rgan mas'ullarga javobgarlik choralarini belgilandi, ularga nisbatan qonun ustuvorligini ta'minlash topshirildi.

Yig'ilishda huquq-tartibot idoralari rahbarlarining hisobotlari tinglandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
O'ZA maxsus muxbirlari**



BINALI YILDIRIM: "O'TMISHGA TAYANGAN TURKIYA — O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI BUNDAN BUYON HAM TURKIY DUNYONING O'ZARO ISHONCHI, QARDOSHLIGI VA UMUMIY KELAJAGIGA QIMMATLI HISSA QO'SHADI"

So'nggi yillarda O'zbekistonni ko'p ziyorat qilgan shaxs sifatida joylardagi islohotlar ta'siri shaharlarning rivojlanishi, davlat sektori faoliyati, biznes olami dinamikasi va eng muhimi, jamoatchilikning kelajakka qarashlarida yaqqol sezilayotganini e'tirof etmoqchiman. Har gal borganimda yanada tarqib, yanada rivojlangan va yanada kuchli O'zbekistonga duch kelaman. Bu o'zgarishlar nafaqat infratuzilmaviy imkoniyatlarda, balki jamiyatning umumiy kayfiyati va kelajakka intilishida ham yaqqol ko'rinib turibdi. Islohotlarning eng yuqori darajada qat'iyat bilan amalga oshirilayotgani — muvaffaqiyatning eng muhim sababi.

Janob Shavkat Mirziyoyevning islohotchilik kayfiyati O'zbekistonning o'zi bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Ushbu islohotlarning uzluksizligi nafaqat mamlakatdagi taraqqiyot, balki butun mintaqadagi barqarorlik va

ko'zda tutadi. 2026-yilning mamlakatda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi kuchli davlat va kuchli jamiyat o'rtasida sog'lom hamjihatlikni o'rnatishda muhim qadamdir.

O'zbekistonda mahalla shunchaki turar joy hududi emas. U birdamlik, ahillik va ijtimoiy hamjihatlik markazi. Ushbu tuzilmani mustahkamlash islohotlarning joylarda o'z ifodasini topishi va fuqarolarning kundalik hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatishiga imkon beradi. Mahallaga asoslangan yondashuv davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, islohotlarning mustahkamligini kafolatlaydi.

Mahalla haqida gap ketganda O'zbekistonda oqsoqollarning roli va ularga qaratiladigan alohida e'tibor haqida to'xtalib o'tish zarur. O'zbek jamiyatida oqsoqollar teran tajriba, sog'lom fikr va ahillik timsoli. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yangi yilga berilgan nom va qabul qilinayotgan davlat dasturi oqsoqollarni ijtimoiy hayotning faol ishtirokchilari sifatida jamiyat hayotida keng ishtirok etishga chorlaydi. Bu tushuncha ijtimoiy muammolar va ehtimoliy xavflarni bartaraf etishda maslahatlashuv, tajriba va sog'lom fikrga ustuvor ahamiyat beradigan boshqaruv modelini aks ettiradi.

O'zbekistonning inson qadrini ulug'lashga asoslangan davlatchilik modeli modernizatsiya va an'analar o'zaro zid kelmasligi, aksincha to'g'ri tatbiq etiladigan bir-birini mustahkamlaydigan muhim manba ekanini yaqqol ko'rsatmoqda. Unga ko'ra, islohotlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'un amalga oshirish jamiyatning o'zgarishlarni qabul qilishini osonlashtiradi va transformatsiya jarayoniga kuchli turki beradi.

Bu yondashuv nafaqat O'zbekiston, balki turkiy dunyo uchun ham ilhomlantiruvchi namuna bo'lib xizmat qilayotir. Ijtimoiy tizimni mustahkamlaydigan va an'analarni saqlab qolish bilan birga modernizatsiyaga qaratilgan bu yondashuv umumiy

Turkiya — O'zbekiston munosabatlarida shakllangan bu kuchli rishtalar butun turkiy dunyoni mustahkamlovchi zamin yaratadi. O'zbekiston tarixiy, madaniy va ijtimoiy salmog'i tufayli turkiy dunyoda markaziy mavqega ega. Aholisi, tarixiy merosi va sivilizatsiya havzasini hisobga olgan holda O'zbekiston turkiy dunyoning asosiy mamlakatlaridan biri sifatida ajralib turadi.

geografiyamizda barqarorlik va taraqqiyot uchun muhim asosdir.

So'nggi yillarda Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarda erishilgan yutuqlar zamirida rahbariyat darajasida o'rnatilgan kuchli va samimiy ishonchning o'imi beqiyos.

Prezidentimiz janob Rejep Tayyip Erdog'an va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti janob Shavkat Mirziyoyev o'rtasida o'rnatilgan bu munosabatlar o'zaro hurmat, ochiq muloqot va birodarlik ruhiga asoslangan.

Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi bu ahillik o'zaro munosabatlarning strategik sheriklik asosida rivojlanishiga imkon berdi. Siyosiy irodaning aniqligi va uzluksizligi tufayli Turkiya — O'zbekiston hamkorlik liniyasidagi sohalar yuqori sur'atda kengayib bormoqda. Qabul qilingan qarorlar aniq natijalar bermoqda. Bu ikki tomonlama munosabatlarimiz konyunkturaviy o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, doimiy va chuqur mazmunga egaligini ko'rsatadi.

Jadal hamkorlik faqat siyosiy munosabatlar bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ta'lim va fan kabi keng jabhalardagi almashinuv mustahkamlanmoqda. Oliy rahbariyat darajasida namoyish etilgan iroda quyi turuvchi muassasalar va xalq tomonidan ham o'zaro qo'llab-quvvatlanib, hamkorlik jarayonlarining yangi qirralari ko'payib bormoqda.

Turkiya — O'zbekiston munosabatlarida shakllangan bu kuchli rishtalar butun turkiy dunyoni mustahkamlovchi zamin yaratadi. O'zbekiston tarixiy, madaniy va ijtimoiy salmog'i tufayli turkiy dunyoda markaziy mavqega ega. Aholisi, tarixiy merosi va sivilizatsiya havzasini hisobga olgan holda O'zbekiston turkiy dunyoning asosiy mamlakatlaridan biri sifatida ajralib turadi. Binobarin, O'zbekistonning Turkiya davlatlar tashkiloti (TDT) tarkibidagi mavjudligi oddiy a'zolik emas, balki tashkilotni muvozanatlashtiruvchi, yo'naltiruvchi va shakllantiruvchi roli bilan ta'viflanadi. O'zbekistonning TDTdagi konstruktiv roli tashkilotda bajarilayotgan ishlarga barqarorlik, teranlik va mazmun bag'ishlaydi.

Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik ikki tomonlama munosabatlar qatorida Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi ishlarni tezlashtirish jihatidan ham muhim. Umumiy qarash, o'zaro hurmat va maslahatlashuv madaniyati Turkiya dunyoni yanada integratsiyalashgan, samarali va nufuzli tuzilmaga aylantirishga hissa qo'shadi.

Shu nuqtayi nazardan, o'tmishdan kuch oluvchi Turkiya — O'zbekiston munosabatlari o'zaro ishonch, birodarlik va turkiy dunyoning umumiy kelajagi uchun qimmatli hissa qo'shishda davom etadi.

Bu birodarlik nafaqat o'tmishning, balki umumiy kelajagimizning ham eng muhim haqiqatidir.

"Dunyo" AA
Anqara shahri

Boshlanishi 1-betda

Anadoluning O'zbekiston, xususan, ushbu zamindagi Samarqand va Buxoro kabi marvaridlar bilan ma'naviy rishtasi ikki mamlakat aloqalariga o'zgacha ruh va teranlik bag'ishlaydi. Bu bog' nafaqat o'tmishning ifodasi, balki hozirgi munosabatlarni mazmunan to'ldiruvchi muhim omil, umumiy istiqbolni shakllantiruvchi jonli tarixiy merosdir. Umumiy qarashlar, o'xshash ijtimoiy qadriyatlar va mushtarak tarixiy ong ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar eng yuqori darajaga chiqishini ta'minlaydi.

O'tmishdan bugungacha davom etib kelayotgan bu kuchli rishtalar Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar vaqtinchalik emasligi, ular doimiy va chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Bu birodarlik shunchaki xotiralardagi tarix emas: u bugungi hamkorlikni oziqlantiruvchi, umumiy qarashlarni mustahkamlovchi omil sifatida mavjud.

Ushbu mustahkam tarixiy poydevor ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni kundan kunga rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekistondagi so'nggi to'qqiz yil mamlakatning taraqqiyot yo'nalishini shakllantirgan yangi islohotlar davri bo'ldi va bu jarayon davom etmoqda. Janob Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi bu harakat yuzaki o'zgarishlar emas, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli va ko'p qirrali safarbarlik sifatida ajralib turadi. Ushbu yangilanish hayotning barcha jabhasida, iqtisodiy ko'rsatkichlardan ijtimoiy tizimgacha, davlatchilik an'analarni mustahkamlashdan fuqarolar bilan munosabatlarga qadar aks etmoqda.

Islohotlarning asosiy xususiyati — inson qadriga ustuvor ahamiyat berish va jamiyatni mustahkamlash tushunchasiga



O'zbekistondagi so'nggi to'qqiz yil mamlakatning taraqqiyot yo'nalishini shakllantirgan yangi islohotlar davri bo'ldi va bu jarayon davom etmoqda. Janob Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi bu harakat yuzaki o'zgarishlar emas, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli va ko'p qirrali safarbarlik sifatida ajralib turadi.

asoslanganida. Iqtisodiyotda qo'yilgan dadil qadamlar, investitsiya muhitini yaxshilash va dunyoga ochilish istagi yangi O'zbekistonni yanada ochiq, yanada ishonchli va jolibador mamlakatga aylantirayotir. Bu islohotlar jamoatchilikning davlatga ishonchini oshirish barobarida oddiy insonlarning kelajakka umidini mustahkamlamoqda.

"Yangi O'zbekiston" g'oyasi shunchaki maqsad emas. Bu g'oya davlat institutlarining samaradorligini oshirish, boshqaruvga shaffoflik prinsiplarini keng joriy etish, islohotlar bilan har bir mahallaga, har bir xonadonga kirib borishni ko'zda tutadi. Mazkur g'oyaning tafsilotlariga qadar puxta o'ylangan ravon yo'l xaritasi, ijrosini sinchkovlik bilan kuzatib borayotgan rahbari bor.

umumiy rivojlanish tendensiyasiga asos bo'lmoqda. Bu esa mamlakatning mintaqaviy rolini mustahkamlash barobarida turkiy dunyoda yanada faol, konstruktiv ishtirokchi va yetakchi mavqega ega bo'lishi uchun zamin hozirlamoqda. Yangi O'zbekiston nafaqat o'z perloq istiqbolini barpo etayotgan, balki umumiy mintaqaviy farovonlikka munosib hissa qo'shayotgan davlat sifatida alohida ajralib turadi.

O'zbekistondagi islohotlar jarayonining eng o'ziga xos jihatlardan biri markaziga inson manfaatlari qo'yilgan davlatchilik yondashuvidir. Bu yondashuv islohotlar markazda shakllantirilishi bilan birga jamiyatning eng quyi qatlamlariga — oddiy odamlargacha yetib borishini ta'minlashni

YASHIRIN IQTISODIYOT MUZTOG'I

Uni eritmasdan barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi

Tahlil



Sanjar ESHMURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-beta

Yashirin iqtisodiyot ishtirokchilar o'rtasida oshkora amalga oshirilmaydigan, davlat va jamiyat nazoratidan tashqari, soliqlar to'lanmaydigan, davlat statistika organlarida ko'rinmaydigan xufiya iqtisodiy faoliyat turidir. U ko'pincha mol-mulk oldi-sotdi amaliyoti, norasmiy ishlar, xizmatlarga pul to'lash jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Bu illatning ko'lami, davlat iqtisodiyotidagi ulushini aniq raqamlarda ifodalash mushkul. Uni asosiy qismi suv ostiga yashiringan muztoqqa qiyoslash bo'ladi. Ammo uning taraqqiyotga zararini aniq misollarda keltirish mumkin. Bunga doir raqamlar salmog'i katta. Shu bois, taraqqiyot yo'lini tutgan davlatlar muntazam iqtisodiyotdagi yashirin faoliyat ulushini kamaytirish choralarini ko'radi. Bunday qilmasa, mamlakat iqtisodiyoti halokatga uchragan kema kabi suv ostiga g'arq bo'ladi. Chunki u o'z ortidan taraqqiyot ildiziga bolta uruvchi korruptsiya, qog'ozbozlik, firibgarlik, noteng raqobat muhiti kabi qator illatlarni yetaklab keladi. Xalq farovonligi, davlat va jamiyat taraqqiyotining asoslariga putur yetkazadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha yashirin iqtisodiyot hajmi 12 trillion dollar atrofida. Bu borada yalpi ichki mahsulotga nisbatan eng yuqori foiz ko'rsatkich ayrim davlatlarda 64,5 foizga yetadi. Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Singapur, Vengriya esa eng kam yashirin iqtisodiyotga ega davlatlar sifatida e'tirof etiladi.

Ular bu natijaga turli yo'llar bilan erishgan. Masalan, arab mamlakatlari eng zamonaviy texnologiyalar orqali qattiq nazorat tizimini yaratgan bo'lsa, Singapur raqamli iqtisodiyot, tuzilmali bozor orqali bu masalani hal qilgan. Xo'sh, O'zbekiston bu borada qanday yangicha mexanizm, tashabbus va loyihalarni ilgari surmoqda? Ularning samarasi real hayotda qay darajada namoyon bo'layotir?

Bunda sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish, qog'ozbozlikni kamaytirish, oqilona soliq siyosati yuritish, jumladan, turli imtiyoz va rag'batlantirishni hayotga tatbiq etish va soliq yukini kamaytirish orqali norasmiy faoliyat yurituvchilarni rasmiy ish faoliyatiga o'tkazish amaliyoti olib borilmoqda. Shu yo'nalishda hayotga tatbiq etilgan yangi tashabbus va loyihalar natijasida yashirin iqtisodiyot ulushi 2019-yildagi 45-50 foizdan 2025-yilda 35 foizgacha tushdi.

Albatta, qisqa fursatda yaxshi natijaga erishilgan. Ammo bundan ham samarador usullardan foydalanish bugungi kun davr talabi. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida "natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish" amaliyotiga o'tish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish vazifalari belgilangan. Bu borada ortga qaytmas islohotlar jadal kechmoqda.

Ayniqsa, o'tgan yillarda joriy etilgan o'zini o'zi band qilish tizimi ko'plab kichik biznes va xususiy tadbirkorlar, turli hunar egalari faoliyatini soyadagi iqtisodiyotdan real iqtisodiyotga olib chiqdi. Bugungi kunda O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan 6 millionga yaqin shaxs mavjud. Shuningdek, tadbirkorlar va fuqarolarga turli imtiyoz va rag'bat berish orqali ularning yashirin iqtisodiyot ishtirokchisi bo'lib qolishining oldi olinmoqda. Xususan, kichik va o'rta biznes vakillaridan bir foizli daromad solig'i undirilishi ham ularning faoliyatini rasmiy o'zanga solishga zamin yaratmoqda.

Muhim va samarador usullardan yana biri aholini elektron to'lov tizimlaridan faol foydalanishga jalb etishdir. Chunki har qanday elektron oldi-sotdi amaliyotlaridan, albatta, iz qoladi. Bu zamonaviy mexanizmlar



Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha yashirin iqtisodiyot hajmi 12 trillion dollar atrofida. Bu borada yalpi ichki mahsulotga nisbatan eng yuqori foiz ko'rsatkich ayrim davlatlarda 64,5 foizga yetadi. Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Singapur, Vengriya esa eng kam yashirin iqtisodiyotga ega davlatlar sifatida e'tirof etiladi.

hayotga tatbiq etilishi iqtisodiyotda yashirin faoliyat ulushi kamayishiga olib keladi. Bunga turli sohalardagi islohotlar natijasida guvoh bo'lyapmiz.

Masalan, Toshkent shahrida jamoat transporti to'liq avtomatlashgan to'lovga o'tkazilgan natijasida aslida yo'lovchilar soni 30 foiz ko'p ekani ko'rindi. Raqamlashtirilgan dehqon va buyum bozorlarida tushum 2-3 karra oshdi. Real natijalar elektron to'lov tizimini boshqa sohalarida ham ommalashtirish, sodda shaklga o'tkazib, yanada qulaylashtirishni taqozo etadi. Muhimi, bu borada yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu yo'nalishdagi ishlar rivojini yangi bosqichga olib chiqadi. Hujjatda yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravar qisqartirish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida aholi tomonidan to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirish ulushini 75 foizga, iqtisodiyotning rasmiy sektorida band aholining jami iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushini 64 foizga yetkazish, Iqtisodiy erkinlik indeksi va Korruptsiyani idrok qilish indeksida O'zbekistonning o'rni kamida 30 pog'onaga ko'tarilishiga erishish kabi vazifalar 2030-yilga qadar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib belgilangan.

Leikin keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda ushbu hujjatga asosan yo'lga qo'yiladigan yangi tashabbuslar faqatgina soliq tushumlarini ko'paytirishdan iborat degan turlicha talqinlar uchrarmoqda. Buning asosiy sababi yangi loyihalar mazmuniga to'liq kirib borilmagan hamda yashirin iqtisodiyotning davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri ko'lamini ko'pchiligimiz to'liq anglab yetmaganimizdir.

Halol raqobat bo'lsa...

Ijtimoiy himoya kushandasi. Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini mustahkamlandi. Bu islohotlar markazida inson manfaatlarini turadi, davlat byudjetining katta qismi ijtimoiy sohalarga yo'naltiriladi degani. Shunga mos ravishda 2026-yilgi davlat byudjeti xarajatlarining 50 foizdan ortig'i ijtimoiy sohaga qaratilgan. Jumladan, ta'lim xarajatlari ulushi 25,5 foiz, sog'liqni saqlashga ajratiladigan mablag' esa 12 foiz oshishi rejalashtirilgan.

Yashirin iqtisodiyot davlat byudjetida o'z ifodasini topmasligi hisobiga davlatning ijtimoiy himoya qobiliyatini susaytiradi. Bu kam ta'minlangan oilalar, yoshlar, mehnatga

layoqatsiz fuqarolarga to'g'ridan to'g'ri zarar yetkazadi.

Yomonliklar "onasi". Yashirin iqtisodiyot, birinchi navbatda, korruptsiya, tanish-bilishchilik illatlarini kuchaytiradi. Shuning uchun iqtisodiyotda bu illat ulushini kamaytirish korruptsiyaga qarshi kurashning asosiy talablaridan biri.

Prezidentimiz o'tgan yili 10-dekabrda korruptsiyaga qarshi kurashish, kompayens nazoratini takomillashtirish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar taqdimoti bilan tanishdi. Unda korruptsiyaga qarshi kurashishning yangi mexanizmlarini hayotga tatbiq etish bo'yicha ta'sirli tashabbuslar ilgari surildi. Bu, o'z navbatida, sohalardagi yashirin iqtisodiyotni ham kamaytiradi.

Yana bir jihat — moliyaviy firibgarliklarning tegirmoniga ham aynan shu unsur suv quyib turadi. Bundan tashqari, kontrabanda mahsulotlar yoki sotishi taqiqlangan, cheklangan narkotik, psixotrop moddalar hamda sifatsiz mahsulotlarning ichki bozorga chiqarilishiga yo'l ochib berayotgan illatlardan biri ham yashirin iqtisodiyotdir.

Sog'lom raqobat muhiti muvozanati buzilishi. Yashirin iqtisodiyot mamlakatdagi sog'lom raqobat muhiti muvozanatdan chiqaradi. Ayrim tadbirkorlar norasmiy faoliyat yuritish orqali soliqlardan qochishga urinadi. Ular aslida soliq sifatida to'lanishi zarur bo'lgan daromadni ham o'zining foydasi sifatida ko'radi. Demak, qing'ir yo'ldan borayotgan "uddaburon" qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkordan ko'ra ko'proq daromad topadi. Shu orqali u raqobatda halol tadbirkorga nisbatan ustunlikka ham ega bo'lmoqda.

Bundan tashqari, soliq to'lamaalik uchun daromadning muayyan qismi pora yoki boshqa norasmiy mablag' ko'rinshida sarflanadi. Bu pul aylanmasiga zarar keltirib, aholining iste'mol qobiliyati pasayishiga olib keladi. Shu bois, raqobat muhiti bor joyda taraqqiyot va oldinga siljish bo'ladi.

Ischilar huquqi xavf ostida qolishi. Yashirin iqtisodiyotning yana bir ko'rinishi aholining norasmiy ravishda band bo'lishidir. Bunday holatlar ischilar uchun doim zarar keltiradi. Masalan, rasmiy ravishda ishlamay, ish haqini qo'ldan oluvchi ischilar ko'p hollarda aldanihi, ortiqcha mehnatga jalb qilinishi, sug'urta va pensiya pullaridan quruq qolishi hech gapmas. Yuqorida qayd etganimizdek, bu borada o'zini o'zi band qilish tizimi ko'pchilikning joniga oro kirdi.

Inflyatsiyani kuchaytiradi. Yashirin iqtisodiyot pul aylanmasi barqarorligini



buzib, inflyatsiyani kuchaytiradi, milliy valyuta qadrsizlanishiga omil bo'ladi. Natijada iqtisodiy barqarorlik yo'qoladi. Bu aholining kelajakka ishonchini susaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, yashirin iqtisodiyotning jamiyatga ta'siri kundalik hayotimizda sezilmaydigan ko'rinadi. Ammo uning kuchayishi ko'plab iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Elektron to'lovlar uchun yagona QR-kod: ham vaqtiniz, ham naqdingiz tejaladi

Prezidentimizning yuqoridagi farmoniga muvofiq, joriy 2026-yildan boshlab elektron to'lov tizimini ommalashtirish orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, urchishining oldini olish uchun nazoratni yanada kuchaytirish tartiblari belgilandi.

Hujjatga binoan, 2026-yil 1-yanvardan barcha savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar tomonidan banklarda generatsiya qilingan yagona QR-kod orqali elektron to'lovlarni qabul qilish yo'lga qo'yildi. Shu yilning 1-iyulidan agar tadbirkorlik subyektlari yagona QR-kodlardan foydalanmasa, savdo qoidalari buzish deb hisoblanadi. Ushbu tartib iste'molchilarga yanada qulaylik yaratadi.

to'lov tizimiga o'tkazilmoqda. Bu qator illatlarning ijtimoiy hayotimizda urchishiga to'sqinlik qiladi. Masalan, davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning barchasi elektron shaklga o'tkaziladi. Shuningdek, elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvdan foydalanilgan uchun to'lovlar elektron amalga oshiriladi. Bu davlat xizmatchilarining fuqarolardan qo'shimcha mablag' undirishining oldini oladi, korruptsiya holatlar kamayishiga xizmat qiladi.

Alkogol, tamaki mahsulotlari savdosi faqat elektron shaklda bo'ladi. Bu amaliyot voyaga yetmagan shaxslar sog'liq uchun zararli mahsulotlarni yashirincha sotib olishini cheklaydi. Elektron to'lov hisobotiga ko'zi tushgan ota-onalar farzandini bu illatdan olisroqda tutishga urinadi. Bu tartib ichki bozorda kontrabanda va sifat nazoratidan o'tmagan mahsulotlar ko'payishining oldini oladi. Aksiz solig'i to'lamaidan tujjorlik qilayotganlar endi qonunni chetlab o'tolmaydi.

Shuningdek, transportlarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish va elektrda harakatlanadigan transportlarni quvvatlash bo'yicha xizmatlar to'lovi ham faqatgina elektron shaklda bo'ladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda kuz-qish mavsumida yoqilg'i quyish shoxobchalarida turli cheklov va talablar joriy etilmoqda. Bu talablar, albatta, aholini bir xil darajada energetika resurslari bilan ta'minlash, ya'ni adolati taqsimot uchun muhim. Ammo ayrim hollarda bu talablarning buzilishi ko'zga tashlanayapti. Elektron to'lov tizimi esa bunday holatlarga barham beradi.

Qiymati 25 million so'mdan oshadigan tovar va xizmatlar faqat elektron to'lov orqali amalga oshiriladi. Xususan, ko'chmas mulk obyektlari, ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan M, N, O va G toifaga kiruvchi transportlar hamda maxsus avtotransport vositalarini sotish va sotib olish to'liq elektron shaklga o'tkazilmoqda.

Asorati og'ir bo'lgan firibgarlik holatlarining eng ko'pi uy-joy va mashina savdosida uchraydi. Ko'p insonlar yolg'onga ishonib, yillab jamg'argan pulini firibgarlar qo'lga berib qo'yimoqda. Yangi tizim esa bunday holatning qisman oldini oladi. Farningning mana shu qismi ko'pchilikni xavotirga solmoqda. Ular ehtiyoj uchun o'z mulkini sotayotganlar soliqdan jabr ko'rmaydimi deysishmoqda. Ammo Soliq kodeksiga ko'ra, barcha ham bunday holatda soliq to'lash majburiyatini olmaydi. Bunda ko'proq uy-joy va mashina oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchilar boshqa kasb egalari kabi daromad solig'ini to'laydi.

Bir so'z bilan aytganda, elektron to'lov tizimini ommalashtirish, aholiga qulaylik yaratish bilan birga uning huquqlarini ham mustahkamlaydi. Xufiya faoliyatning oldini oladi va xalq farovonligi, davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Naqdsiz to'lovlar hajmi 75 foizga yetkaziladi

Bundan tashqari, ularning huquqlari himoyasini sezilarli mustahkamlaydi.

Masalan, keyingi yildan biror savdo shoxobchasiga borganingizda sotuvchilar sizga terminalimiz ishlamaypti degan bahonani ayt olmaydi. Yoki bizda faqat "Payme" "Click" ilovasi ishlaydi deb ortiqcha ovora qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yo bo'lmasa, tijoratdagi plastik kartasiga xaridingizdan tashqari o'tkazma uchun yana bir foiz pul sarflashingizga hojat qolmaydi. Bir so'z bilan aytganda, bu xaridorlarning ham naqdi, ham vaqti tejalisiga xizmat qiladi.

Shuningdek, olgan mahsulotingiz sifatsiz yoki amal qilish muddati o'tib ketganini bilib qolsangiz, iste'molchilar huquqini himoya qilish tashkilotlariga asosli murojaat qila olishingiz mumkin.

2026-yil 1-apreldan ayrim mahsulotlar hamda xizmatlar savdosi faqatgina elektron

Ushbu yangi mexanizmlar va belgilangan qat'iy nazorat orqali qator natijalarga erishish kutilmoqda. Xususan, 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravar qisqartirish hamda savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida aholi tomonidan to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirish ulushini 75 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band aholining jami iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushini 64 foizga ko'tarish ham pirovard maqsadlardan biri.

Shu bois, sohalardagi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish choralarini natijasini doimiy ravishda kuzatib borish mas'ullarning asosiy vazifalaridan bir sifatida belgilandi.

Umuman olganda, yashirin iqtisodiyot qisqarishi davlat va jamiyat rivoji, xalq farovonligiga katta foyda keltiradi. Yana bir muhim jihat, yashirin iqtisodiyot bo'lmasa, bozor aylanmasi muvozanati barqarorlashadi. Barchaga birdek foyda keltirib, kelajakka ishonchimizni orttiradi. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonda barpo etishda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash hammamizning birdek vazifamizdir.

Bozor aylanmasi barqarorligining barchaga foydali ekanini quyidagi hikoyadan ham anglash bo'ladi.

Qarz

Kichkina shaharchaga bir sayov keldi va kichkinagina mehmonxonaga kirdi. Mehmonxonaga egaliga 100 dollar garyov puli qoldirdi va xonalar bilan tanishishga kirishib ketdi. Mehmonxonaga egalisi qo'lga tushgan naqd puldan zudlik bilan foydalanishga ahd qildi. U yugurib borib qassobdan qarzini uzish uchun 100 dollarni uzatdi.

Qassob ham tezda borib fermerdan qarzini uzdi. Fermer traktorini tuzatib bergan ustadan qarzini uzolmay xunob bo'lib o'tirgandi. Shaxdam qadamlar bilan ustaga pulni uzatdi. Usta oziq-ovqat olaverib, do'konchidan 100 dollar qarz bo'lib qolganiga esiga tushdi va do'konchining oldida yuzi yorug' bo'ldi.

Do'konchi anchadan beri do'konini tozalab yurgan farroshning oyligini berolmayotgandi. 100 dollarni olgan farrosh ijara pulini to'lash uchun mehmonxonaga yugurdi va xo'jayinga pulni uzatdi. Xo'jayin pulni olgan paytda yuqori qavatdan sayov tushdi va bu xonalar unga to'g'ri kelmasligini aytib, pulini qaytarib olib, jo'navori. Hech kim hech narsaga ega bo'lmagan bo'lsa-da, butun shaharcha qarzaridan qutulgan va kelajakka ishonch bilan qarayotgan edi...

2026-yil 28-yanvar, 18-son

Kun mavzusi

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISH 2026

Bugun yangi O'zbekiston taraqqiyotning sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida inson qadri, aholi farovonligi, ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy rivojlanish g'oyasi turibdi. Davlat siyosati ilk bor muammolarni yashirmasdan, ochiq tan olish, ularni aniq raqamlar asosida tahlil qilish va tizimli hal etishga qaratildi. Bu esa yangi O'zbekiston islohotlarining asosiy farqi va ustun jihattir.

AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISH — ISLOHOTLARNING ASOSIY ZAMINI



Azizbek AMONOV, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

esa pensiya tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlarni oldindan rejalashtirishni talab qiladi. Ana shu rejalashtirishning ilmiy asosi aholini ro'yxatga olishdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun, tegishli farmon va qarorlar bu jarayonni BMThing Statistika komissiyasi hamda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti xalqaro tavsiyalariga muvofiq o'tkazishni belgilab berdi. Qonunchilikka ko'ra, aholini ro'yxatga olish har 10 yilda kamida bir marta o'tkazilishi va uning natijalari davlat dasturlari uchun asos bo'lishi shart.

Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ham strategik ahamiyatga ega. Bugun qishloq xo'jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25-27 foizini, aholi bandligining qariyb 30-35 foizini tashkil etadi. Mamlakatda 4 million gektardan ortiq sug'oriladigan yer, minglab fermer va dehqon xo'jaliklari mavjud. Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish orqali qaysi hududda yerdan samarasiz foydalanilyotgani, suv tanqisligi qayerda keskin ekani, qaysi tarmoqlarda mahsuldorlik pastligi aniqlanadi. Bu esa agrar islohotlarni manzilli qilish imkonini beradi.

Yangi O'zbekiston islohotlarining asosiy tamoyili — "avvalo aniq ma'lumot, keyin to'g'ri qaror". Shu tamoyil asosida davlat siyosatining yana bir muhim yo'nalishi — kambag'allikni qisqartirish siyosati shakllandi. So'nggi to'qqiz yilda "kambag'allik" tushunchasi ilmiy va siyosiy muomalaga ochiq kirib keldi. Bu tasodifiy emas. Chunki ayrim hududlarda kambag'allik darajasi 15-17 foizgacha yetgani, ba'zi qishloq joylarda har besh xonadondan biri barqaror daromad manbaiga ega emasligi aniq raqamlar bilan ko'rsatildi. Muammoni ochiq tan olish — uni hal etishning birinchi sharti. Shu asosda O'zbekistonda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etildi. Bu vazirlik kambag'allikka qarshi kurashni umumiy shior emas, balki mahallabay va xonadonbay aniq mexanizmlar asosida olib bormoqda. Har bir mahallada aholining mehnat salohiyati, daromad manbalari o'rganilmoqda, har bir hudud, mahalla, qolaversa, xonadonlarni qamrab olgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi ishlab chiqildi. Kambag'allikni qisqartirishning maqsadi

insonni nafaqaga qaram qilish emas, balki ishli qilish, tadbirkor qilish, yaxshi va farovon yashashga olib chiqishdir. Shu maqsadda amalga oshirilgan ishlar natijasi sifatida so'nggi yillarda kambag'allik darajasi pasayib, millionlab aholi turmushida real o'zgarishlar bo'layotir. Xususan, kambag'allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushib, 1435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylangan.

Bu jarayon oziq-ovqat xavfsizligi bilan ham bevosita bog'liq. Bugun dunyoda iqtisodiy inqirozlar, logistika muammolari, oziq-ovqat taqchilligi xavfi ortib bormoqda. Shu sharoitda O'zbekiston uchun aholini o'z mahsulotlarimiz bilan to'liq ta'minlash hayotiy ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish orqali ekin maydonlari optimallashtirildi, mahsuldorlik oshirildi. Ayrim asosiy mahsulotlar bo'yicha o'z-o'zini ta'minlash darajasi 90 foizdan oshdi.

Ortiqcha mahsulotlarni eksport qilish orqali davlat iqtisodiyotiga milliardlab dollar valyuta tushumlari kirib kelmog'ga. Ayni paytda "o'zbek brendi"ni dunyoga tanitish siyosati yuritilmoqda. Prezidentimiz Murojaatnomasida iqtisodiyot va eksport salohiyati oshgani haqida aniq raqamlar keltirilgani ham bejiz emas: joriy yil eksport 23 foiz o'sib, 33,4 milliard dollarga yetkazilishi, yalpi ichki mahsulot 145 milliard dollardan oshgani aytilgan. Bu raqamlar aholi farovonligiga xizmat qiladigan real iqtisodiy asos borligini ko'rsatadi.

Tarixga nazar tashlasak, davlat qudrati har doim aniq hisob-kitobga tayangan. Amir Temur davrida ham aholi, yer, soliq va harbiy resurslar qat'iy hisobga olingan. "Temur tuzuklari" da har bir hudud imkoniyatlariga qarab boshqarilgani ta'kidlanadi. Bugun yangi O'zbekistonda bu tamoyil zamonaviy, raqamli usullar asosida davom etmoqda.

Eng muhimi, aholining tinchligi va farovon hayotini ta'minlash faqat bitta qaror yoki bitta dastur bilan emas, balki doimiy tahlil, muntazam o'rganish va jamoatchilik fikriga tayanish orqali



amalgama oshadi. Bugungi islohotlar davrida davlat "bir marta reja — umrboq ijro" uslubidan voz kechib, "doimiy monitoring — doimiy yangilash" tamoyiliga o'tmoqda. Bu yerda sotsiologik tadqiqotlar hal qiluvchi ahamiyatga ega: aholining kayfiyati, ehtiyojlari, xizmatlar sifatiga baho, mahalladagi muammolar xaritasi, yoshlar bandligi, ayollar faolligi, migratsiya sabablari kabi masalalar doimiy o'rganilsa, islohotlar manzilli va samarali bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, yangi O'zbekiston islohotlarida doimiy sotsiologik tahlillar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Agar aholining kayfiyati, ehtiyojlari, muammolari, davlat xizmatlariga munosabati vaqti-vaqti bilan o'rganilmasa, hatto eng to'g'ri qaror ham kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shu bois, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz monitoring va tahlil tizimining boshlang'ich nuqtasidir. Ro'yxatga olish raqamlarni beradi, sotsiologik tadqiqotlar esa shu raqamlar ortidagi real hayotni ochiqlaydi.

Shuning uchun aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish faqat "davlat uchun hisobot" emas, balki har bir fuqarou uchun naf keltiradigan jarayondir. Chunki ro'yxatga olish orqali davlat xizmatlari qayerda kam, qayerda sifat past, qayerda infratuzilma yetishmaydi — aniqlashadi. Demak, keyingi qarorlar ham "umumiy" emas, balki mahalla va xonadon ehtiyojiga qarab qabul qilinadi.

Mazkur jarayonda O'zbekistonning har bir fuqarosi faol ishtirok etishi juda muhim. Ro'yxatga olishga xolis ma'lumot berish — jamoatchilik nazoratining bir ko'rinishi. Chunki aholi haqidagi ma'lumotni eng yaxshi biladigan ham, uning haqqoniyligini ta'minlaydigan ham fuqaroning o'zi. To'g'ri va aniq ma'lumot bermaslik yoki beparovlik aslida o'z mahallasi, o'z xonadoni manfaatiga befarqlikdir. Aniq ma'lumot berilgan joyda maktab ham, shifoxona ham, ish o'rni ham

aniq ehtiyojga qarab yaratiladi. Prezidentimiz Murojaatnomada mahallaning jamiyatdagi o'rini ta'kidlab ekan, ma'no jihatdan nihoyatda kuchli fikr aytgan: "Mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch... Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi". Bu gap ro'yxatga olish, ijtimoiy himoya, kambag'allikni qisqartirish va mahalla taraqqiyoti bir zanjir ekanini yana bir bor ko'rsatadi.

Bu islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi xizmat turlarini raqamlashtirishdir. Raqamlashtirish nafaqat davlat idoralarning ishini tezlashtiradi, balki fuqaroning o'z huquqi va manfaatini himoya qilish imkoniyatini ham kengaytiradi. Raqamlashtirish orqali davlat xizmatlari aholiga yaqinlashmoqda, ortiqcha qog'ozbozlik, navbatlar va inson omiliga bog'liq to'siqlar qisqarmoqda. Eng muhimi, raqamli tizimlar fuqaroga o'z ma'lumotlarini ko'rish, tekshirish va nazorat qilish imkonini beradi. Fuqarog' o'z xonadoni, yer maydoni, qishloq xo'jaligi faoliyati, ijtimoiy imtiyozlari haqidagi ma'lumotlarni ochiq ko'ra olsa,

bu shaffoflik va ishonchni mustahkamlaydi. Masalan, raqamli xizmatlar orqali fuqarog' o'z ma'lumotlarini tekshirishi, o'z xonadoni yoki xo'jaligiga taalluqli ma'lumotlarni kuzatishi, imtiyozlar, subsidiyalari, soliqlar, yer hisoboti, chorva va ekinlar haqidagi ma'lumotlarini tartibga solishi mumkin. Bu esa shaffoflikni oshiradi, korruptsiya xavfini kamaytiradi, inson omiliga bog'liq kechikishlarni qisqartiradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yana bir katta vazifasi mamlakatning raqamli boshqaruvi uchun ishonchli "asosiy ma'lumotlar bazasi"ni yaratishdir. Ro'yxatga olish ma'lumotlari to'liq va aniq bo'lsa, raqamlashtirish ham mazmun kasb etadi: davlat xizmatlari "qog'oz" ga emas, real aholi va real resurslarga tayanadi. Demak, fuqarog' ham o'zini, xonadonini, xo'jaligini nazorat qilish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu umumiy yo'nalishlar O'zbekiston — 2030 strategiyasida belgilanayotgan maqsadlarga ham xizmat qiladi. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ana shu maqsadlarning har biriga xizmat qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Strategiyaning o'zida islohotlarning izchil, sifati va o'z vaqtida bajarilishi, jamoatchilik nazorati va fuqarolik ishtiroki muhimligi qayd etilgani bu jarayonda aholi ishtirokini kuchaytirishga chaqiriqdir.

Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida bir necha bor alohida ta'kidlaganidek, inson qadriini ulug'lash, xalq dardini eshitish va qarorlarni xalq manfaatiga mos qabul qilish davlat siyosatining bosh mezonidir. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ana shu g'oyalarni amaliy hayotga tatbiq etadi, davlat bilan fuqarog' o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi.

Shuningdek, Murojaatnomada 2026-yilga alohida ruh va maqsad berilib, 2026-yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilindi. Bu nomning o'zi ham aholi bilan ishlash, mahalla tizimini kuchaytirish, ijtimoiy barqarorlik, tarbiya, jamoatchilik nazorati va farovonlikni ta'minlashga mahallaning hal qiluvchi o'rni borligini anglatadi. Demak, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish aynan shu yil ustuvor vazifalarini amaliy jihatdan ta'minlaydigan eng zarur vositalardan biridir: kim qaysi mahallada yashayapti, qanday ehtiyoj bor, qanday resurs bor, qanday muammo bor — aniq ma'lumot bo'lmasa, joriy yil nomi va uning mazmuni to'liq o'chilmaydi. Ro'yxatga olish yilni va kelajakni amaliy natijaga aylantiradigan muhim vositadir.

Yuqoridagi keltirilgan barcha islohotlar, dasturlar va strategik maqsadlarning pirovard natijasi, avvalo, aholining tinchligi va farovon hayotini ta'minlashga qaratilgan. Tinchlik faqat xavfsizlik yoki osoyishtalik emas, balki insonning ertangi kunga ishonchi, o'z oilasi, xonadoni va mehnati bilan munosib yashash imkoniyatidir. Ana shu ishonchni ta'minlash uchun davlat qarorlari tasodifiy emas, balki doimiy tahlil, muntazam o'rganish va jamoatchilik fikriga tayangan holda qabul qilinishi zarur.

Xulosa o'rinda aytganda, barcha hamyurtlarimiz aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonida fuqarolik mas'uliyatini oshirib, berilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligi uning mahallasi va xonadoni manfaatiga xizmat qilishini anglab yetishi kerak.

Negaki, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish yangi O'zbekiston islohotlarining faqat bir yo'nalishi emas, balki barcha islohotlarni bog'lab turuvchi strategik asosdir. U inson qadri, aholi tinchligi, farovon hayot, barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlangan davlat qurish maqsadlariga xizmat qiladi. Ana shu jarayonda har bir fuqaroning faol ishtiroki esa mamlakatimiz kelajagini belgilaydigan eng muhim omil hisoblanadi.

Tomorgachilik Hamon esimda, otam tomorqamizga qalampir ekayotganida ko'pincha "Qalampir qirq yillik qarzni uzadi", derdi. Bu gaplar qanchalik hayotiy haqiqatga yaqin ekanini aniq bilmayman. Ammo bu gap zamirida mehnat va izlanishdan to'xtamay, serdaromad qalampir yetishtirishga rag'bat berishda haqiqat bor edi. Chunki qalampir hamisha bozorgir mahsulot bo'lgan.



MEHNAT BILAN BAXT YARATAYOTGAN ODAMLAR

Avval ko'k qalampirni faqat erta ko'klam va yoz oylaridagina topish mumkin edi. Bugun yilning to'rt faslida ham sarxil, achchiq qalampir yetishtirish borasidagi ish tajribalar ommalashdi. Bunga Farg'ona tumanidagi "Guzar" mahalla fuqarolar yig'inida yashaydigan Abdurasul Ahmedovni ham misol qilish mumkin. Qahramonimizning xonadonidagi issiqxonani ko'rgan kishi qish "zahri"ni bir damda unutadi. Bu yerda sadafdek terilgan, qalampir ko'chatlarini, uning hosilini ko'rib, havasizing keladi. Albatta, bu o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas. Avvalo, oildagi totuvlik, hamjihatlik asosida qilingan mehnat o'z samarasini berdi. E'tiborsiz, tomorqa egalari ekinlarni muqobil energiya yordamida istitish, tomchilatib sug'orish tizimlarini yo'lga qo'ygan. Bu ko'chatlar rivojini yaxshilab, hosildorlik miqdorini oshirib, mahsulot tan narxini arzonlashtirish imkoniyatini bermog'ga.

Ming so'mdan sotaypimiz. Farzandlarni o'qitish, uyli-joyli qilishda ana shu izlanishlarimiz qo'l kelmog'ga. Shu bois, tomorqamizdagi har bir qarich yerdan unumli foydalanyapmiz. Ayrim xonadonlarda bekor turgan tomorqani ko'rsam axonadonlar. Shuncha imkoniyat, imtiyozlar bor joyda umrini bekorga o'tkazayotgan odamni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Chunki kaftdek yeri bo'lgan odam hech qachon kambag'al bo'lmaydi, o'zganing qo'liga qarab qolmaydi. Qalampir ko'chatlari ellik kunda hosilga kirib, iyun oyigacha daromad beradi. Ko'chatlarni noyabr oyining dastlab o'n kunligida ekanimiz. Hosilning ilk nishonalarni yangi yil dasturxoniga tortiq qildik. Takroriy ekin uchun oq jo'xori ekamiz. Bu yerning sho'rini oladi, unumdorligini oshiradi. Jo'xori chorva uchun ozuqa bo'ladi. Ko'pchilik havas bilan tajribamizni o'rganishga kelib, yo'l-yo'riq so'raydi. Ularga imkon qadar yordam berishga harakat qilaman.



Avvaliga mo'jaz issiqxonada qalampir ekib, parvarishlab ko'rdi. Samarasi yaxshi bo'lgach, ishga jiddiy kirishdi. Hozir 18 sotixlik issiqxonada 6 ming tup achchiq qalampir ko'chatini parvarish qilyapti. Bu bir mavsumda o'rtacha hisobda 3 tonnadan ortiq hosil terib olish imkoniyatini beradi. Yillik daromad salmog'i 200-250 million so'm.

Mavsumdagi ilk hosil cho'g'i chakki emas, — deydi issiqxonada ishlayotgan Abdurasul aka. — Mehnatimiz besamar ketmayapti. Hozir bir kilogramm achchiq qalampirni ko'k holatda 60

Abdurasul Ahmedov uzoq yil qurilish korxonalarida ishlab, nafaqaga chiqqan. Ammo uydagi bekor o'tirishni o'ziga ep ko'rmaydi.

Amaliy ishlar tufayli mahsulotlarimizga bo'lgan talab tashqi bozorda ham ortib bormog'ga. O'tgan yilning o'zida Farg'ona viloyatidan 26 tonnadan ortiq achchiq qalampir Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iz respublikalariga eksport qilindi. Joriy yilda

bu boradagi ishlar salmog'i yanada ortadi, geografiasiy kengayadi.

— Mahallamizda boqimanda kayfiyatdagi oilalar, ishsiz fuqarolar yo'q, — deydi "Guzar" mahallasidagi hokim yordamchisi Jamshid Ergashev. — Ayni kunda aholiga tegishli 50 dan ortiq tomorqada issiqxonalar bor. Ularda achchiq qalampir, qulpnay, pomidor kabi yoz ne'matlari yetishtirilyapti. O'tgan yilning o'zida bu yo'nalishda tadbirkorlik faoliyatini boshlamog'chi bo'lgan tashabbuskorlarga 150 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit ajratildi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya reyestriga kiritilgan oilalarga ijara asosida ajratilgan ekin maydonlarida ham issiqxonada achchiq qalampir va boshqa sabzavot mahsulotlari yetishtirish yo'nalishida mikrooyihalar ishga tushirildi.

Issiqxonalaridagi ko'chatlarni bir tizimga bog'lash, begona o'tlardan tozalash, hosil yig'im-terimi bilan bog'liq mavsumiy ishlarga shu mahalla ahli jalb etilgan. Ular uy yumushlari, farzand tarbiyasidan ortib, hamsayualariga har jihatdan ko'mak berib, daromad olyapti.


— Qishlog'imiz tuman markazidan ancha olibda joylashgan, ishlab chiqarish korxonalarini yo'q. Shu bois, aksariyat xotin-qizlar ishsiz edi, — deydi Baxtigul Metinova. — Hozir hayot tarizimiz o'zgaradi. Uy yumushlaridan ortib, mavsumiy ishlarga ko'maklashib, kuniga 120-150 ming so'm daromad olyapmiz. Bu oddiy uy bekalari uchun yaxshi imkoniyat.

Mirishkor tomorqachining amaliy ish tajribalari bilan tanishish asnosida unga "Qalampir qirq yillik qarzni uzadimi?" degan savol bilan yuzlandik. Abdurasul akaning yuziga tabassum yugurdi.

— Albatta, mehnat qilgan odam farovonlik, xotirjamlikka erishadi. Usti but, dasturxonni to'kin bo'ladi. Bu katta baxt, — dedi u ishonch bilan.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Maqolangizni o'qidim



Shohista QODIR QIZI, mustaqil tadqiqotchi

"Bu dunyo — kurash maydoni, quroli — sog'lom jismu tan, o'tkir aql va xush axloq"

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori Otabek Hasanovning "Yangi O'zbekiston" gazetasi...


"Ko'rinmas urush" va raqamli qaramlik

Maqolada ta'kidlanganidek, urush endi faqat chegaralarda emas, balki smartfon ekranlarida kechmoqda. Masalan, Microsoft kompaniyasi...

"0,1 foiz" fojiasi va milliy kontent

Muallif keltirgan eng og'riqli raqam internetdagi o'zbek tilidagi kontentning atigi 0,1 foiz ekanidir. Bu ma'naviy ochlik belgisi. Agar biz farzandimizning...

Muallif keltirgan eng og'riqli raqam internetdagi o'zbek tilidagi kontentning atigi 0,1 foiz ekanidir. Bu ma'naviy ochlik belgisi.



yomon o'rtoqqa qo'shilsa, ota buni ko'rardi. Hozir esa u uyda jim o'tirgan bo'lsa-da, virtual olamda...

Maqolada keltirilgan "feyk xabarlar 6 barobar tez tarqalishi" haqidagi ma'lumot shuni ko'rsatadiki, haqiqat "oyoq kiyimini kiyguncha" yolg'on dunyoni aylanib chiqmoqda. Demak, bolaga shunchaki "telefonni qo'y" deyish yetarli emas...

Mamlakatimizda axborot xurujlari va destruktiv kontentga qarshi kurashish tizimi yo'lga qo'yilgan. Xususan, axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va noqonuniy kontent tarqalishiga to'siq qo'yuvchi mustahkam huquqiy baza ishlatilmoqda.

Shuningdek, taqilovchi choralar vaqitchalik samara berishi inobatga olinib, "Jaholatga qarshi — ma'rifat" tamoyili ilgari surilmoqda. Xususan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida internet madaniyati, milliy qadriyatlar va yot g'oyalarga nisbatan immunitet shakllantirish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib bormoqda.

Dunyo hamjamiyatida o'rinni munosib saqlab kelayotgan, ayni damda ishonchi yanada mustahkamlanayotgan mamlakatimizning bugungi yutuqlari, albatta, uning tinchligi tufaylidir. Global muammolar davrida, dunyoning ko'plab mamlakatlari turli iqtisodiy-siyosiy bosimlar ostida qolgan bir paytda yurtingizning barqaror taraqqiyoti ham aynan shu tinchlikning mevasidir.

"UYG'OTUVCHI QO'NG'IROQ" yoxud befarq bo'lishga haqqimiz yo'q



"Proaktiv rejim" va ota-onalar mas'uliyati

Maqoladagi "proaktiv rejim" (oldindan harakat qilish) tushunchasi g'oyat muhim. Biz ko'pincha bola noto'g'ri yo'lga kirib ketgandan keyingina...

bilan tortishuvga sarflasak, kelajakni boy beramiz". Faqat avval yaxshi edi deb no'lib o'tirmasdan, bugungi "TikTok avlodi" (Zed va Alfa) tilini tushunishimiz, ular bilan o'sha maydonda muloqot qila olishimiz zarur.

Ilgari Sharqda, xususan, bizning mintaqada tarbiya yopiq va jamoaviy tizim asosida qurilgan edi. Tarbiyada so'zdan ko'ra amal kuchliroq bo'lgan: ko'p gapirilmagan, lekin halol mehnat qilingan, kattaga hurmat ko'rsatilgan. "Qush uyusida ko'rganini qiladi" maqoli shunchaki so'z emas, balki o'ziga xos tarbiya metodikasi edi.

Bugungi kunda "proaktiv rejim"ga ehtiyoj tug'ilishining sabablari oddiy, biroq ota-onalar hamon o'sha-o'sha. Afsuski, uying "devorlari quladi". Endilikda "darvozani yopish" foydasiz. Chunki bolalarning qo'lidagi, hatto ayrim kattalarning ham "yarmi"ga aylangan telefon orqali butun dunyo (yaxshisi ham, yomoni ham) allaqachon yotog'igacha kirib bo'ldi.

Biz va tabiat

Yashillik — BEBAHO BOYLIK



Daraxt ekish, parvarishlash, o'rmonzorlarni kengaytirish savob amallardan. Chunki daraxtlar atmosferani sof havo bilan ta'minlabgina qolmay, balki inson va atrof-muhit muhofazasini muvofiqlashtiradi.

Daraxtlarning chayir ildizlari tuproq ko'chisini tutib tursa, ularning baqarav tanasi qorning quyi tomon siljishiga yo'l qo'ymaydi.

Oddiy bir misol. Qashqadaryoning Langar qishlog'ida 22 million kub metr hajmda katta yer ko'chikisi sodir bo'lgandi. Chunki ko'chki sodir bo'lgan yerda tuproqni tutib turuvchi birorta daraxt yo'q edi.

Albatta, tuproqning tarkibiga ham ko'p narsa bog'liq...

Qishning qoq chillasida izg'irin va bo'ronlar ro'y berganda sovuqning ta'siri bir necha bor oshadi. Ba'zan daraxtsiz, yaydoq joylarda qor uyumlari yo'llarni to'sib qolishi ehtimoli juda baland. Yo'l chetida daraxt bo'lgan joylarda esa buning aksi. Daraxtlar qalqon vazifasini o'tab, qor ko'chikisining oldini oladi.

Ish yuzasidan Favqulodda vaziyatlar vazirligi mutaxassislari bilan turli hududlarda tez-tez xizmat safarida bo'lganman. Ko'pincha sel va suv toshqinlari, yer va qor ko'chikilari ro'y berishi ehtimoli mavjud joylarni ko'zdan kechirib, shu narsaga amin bo'ldimki, daraxt ko'p hududlarda yer va qor ko'chikisi hadeganda ro'y beravermaydi.



Samarqand — Kitob avtomobil yo'lining 52-kilometrida yuz bergan o'rta hajmdagi (7200 kub metr) yer ko'chikisi hodisasi avtomobillar harakatlanayotgan qatnov yo'lini to'sib, uning chetida turgan 15 ta himoya to'sig'ini pastlik tomon surib yuborgan edi.

qismida yuz bergan tabiiy ofat chog'ida biror piyoda yoki yo'lovchi mashina o'tib qolmagan. Voqea joyini kuzatganimizda bu holat hududning daraxt bo'lmagan qismida yuzaga kelgani ma'lum bo'ldi.

befarqlik tufayli ko'ngilsiz voqea sodir bo'lib, ikki yuz gektarga yaqin yer maydoni yong'in ichida qolgandi. Xavfli yong'in o'rmon xo'jaligining anchagina qismini o'z ichiga olib, Taxtqoracha dovonining quyi qismi —

Rohatbuloqqa yetib borgan. Natijada nafaqat daraxtlar, balki bu yerlarni makon tutgan turli jonivorlarga ham shikast yetdi. Yong'inni bartaraf etishda mutaxassislar bilan birga shu atrofda istiqomat qiluvchi aholi va tog' yonbag'rida dam oluvchi odamlar ham faol qatnashgandi. Qizig'i shundaki, ular yong'inni bartaraf etishda daraxtlarning shox-shabbalaridan foydalangan. Binobarin, yong'inni o'chirishda ham daraxtlar muhim o'rin tutgan.

Daraxtlar yer qobig'idan tomirlari orqali suvni o'ziga tortib oladi va yer eroziyasiga qarshilik qiladi. Shunday ekan, turfa dov-daraxtlar ob-havoni mo'tadillashiribgina qolmay, balki bir qancha ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'z-o'zidan ayonki, o'rmonzorlarimiz qanchalik kengayib, daraxtzor va butazorlar qalinlashaversa, atmosferamiz shunchalik musaffolashib,

tabiiy ko'rinishdagi turli ofatlar soni tobora qisqaradi.

Qishloq joylarga qaraganda aholi nisbatan zich bo'lgan shaharlar ekologiyasi ancha nomutanosib. Xususan, poytaxtimizda aholi sonining muttasil ortishi, qurilish, sifatsiz yoqilg'i bilan harakatlanayotgan turli rumudagi avtoulavlar soni yildan yilga ko'payishi shahar ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, yuz litr benzin yoqilganda bitta odamning bir yillik umriga yetadigan kislorod sarf bo'ladi. Shahar iqlimining inson organizmiga salbiy ta'sir etishiga oddiy sabablardan biri shundaki, yoz paytlarda katta shaharlarda havo o'ta issiq, dim bo'ladi. Asfalt ko'chalar va binolarning qizib ketishi natijasida nafas olish ham og'irlashadi, odamlar o'zini lohas sezadi.

Eng muhimi, daraxtlar biz yashab turgan muhit atmosferasini sog'lomlashtiribgina qolmay, havo namligini mo'tadillashirib, haroratni pasaytiradi, mikroiklimni yaxshilaydi. Shuning barobarida havoni chang-g'uborlardan tozalab, zararli bakteriyalarga qiron keltiradi. Ko'chako'ydagi shovqinlarni kamaytirish, sanitariya-gigiyena nuqtayi nazaridan ham ahamiyati beqiyos.

Demak, atrof-muhitni zebu ziynatga burkayotgan daraxtzorlar maydonini kengaytirish, yil — o'n ikki oy davomida insoniyatga beminnaq naf keltirayotgan yashil boyligimizni asrab-avaylashimiz ham qarz, ham farzdir. Shahar va qishloqlarda, mahalla-guzarlardagi bir parcha yer bo'lsa ham undan unumli foydalanib, mevali va manzarali daraxtlar ekib ko'paytirsak, nainki atrof-muhit biosferasini, balki o'zimizning-da muhofazamizni ta'minlagan bo'lamiz.

Azamat SUYUNOV, jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-146. 32015 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 00:30